



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 93 sahifa.

2025-yil noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhujja Rikhsikhujjaev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdam o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yaya Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafayev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdulkarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	



OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI



Kodirov Ozodbek

TDIU, Buxgalteriya hisobi va audit fakulteti
BHA-59-gurux talabasi



Ilmiy rahbar:
F.Umarov

TDIU, Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrası dosenti

Annotatsiya: Ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasi sifatida jamiyat ongiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda informatsion hujumlarning kuchayib borayotgani urushga munosabatning o'zgarganidan, qulolning yangi turi – axborotning kashf qilinganidan dalolat beradi. Axborot quroli yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda insonning ongi, qarashlari va qalbi asosiy nishonga aylanadi. Internetning keng qo'llanishi, terroristik guruhlar tomonidan boshqariladigan noqonuniy saytlarning to'satdan paydo bo'lishi, axborot xurujlari va ularga qarshi samarali kurashish mexanizmlarini o'rganish bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, axborot, informatsion urush, internet, terroristik tashkilotlar.

Abstract: Mass media are considered one of the most powerful and influential tools of ideology that directly affect public consciousness. The recent increase in information attacks indicates a shift in the nature of warfare and the emergence of a new type of weapon – information. In such information warfare, the human mind, attitudes, and emotions become the primary targets. The widespread use of the Internet, the sudden emergence of websites operated by terrorist groups, the escalation of information assaults, and the study of effective strategies to counter them have become urgent issues in the modern world.

Key words: mass media, information, information warfare, Internet, terrorist organizations.

Аннотация: Средства массовой информации являются одним из самых мощных и влиятельных инструментов идеологии, оказывая прямое воздействие на общественное сознание. Участвовавшие в последние годы информационные атаки свидетельствуют об изменении характера современных войн и появлении нового вида оружия – информации. В информационных войнах такого типа основная цель – сознание, мировоззрение и эмоциональное состояние человека. Широкое использование интернета, внезапное появление сайтов, управляемых террористическими организациями, рост информационных атак и изучение эффективных способов противодействия им становятся важнейшими задачами современного общества.

Ключевые слова: средства массовой информации, информация, информационная война, интернет, террористические организации.



KIRISH

Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarayotgan bir davrda barcha sohalarda axborot olish va uni yetkazish, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish zaruratga aylangan. Bunday murakkab sharoitda hayot yangidan-yangi talab va vazifalarni oldimizga qo'ymoqda [5]. Ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi.

Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi.

Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqlol g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat – axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesish va O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ommaviy axborot vositalarining inson va jamiyat hayotidagi o'rni, ular orqali amalga oshiriladigan axborot tarqatish mexanizmlari, shuningdek, axborot xurujlari fenomeni bugungi globallashuv sharoitida ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar diqqat markazida turibdi. Ilmiy manbalarda OAV jamiyatning siyosiy, ma'naviy va madaniy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi kuchli kommunikativ institut sifatida baholanadi. Ushbu borada Umarova D.R.ning (2023) ingliz pragmatikasiga oid izlanishlari, til birliklarining semantik-pragmatik ta'siri orqali inson ongida ijtimoiy-psixologik reaksiyalarni shakllantirish mumkinligini ko'rsatib beradi. Tilshunoslik va pragmatika nuqtayi nazaridan olib qalganda, OAVdagi har bir matn, birinchi navbatda, auditoriya ongiga mo'ljallangan ma'no yukiga ega bo'lib, u jamiyatdagi axborot jarayonlarining faollashuviga sabab bo'ladi.

Xalqaro manbalarda ham OAVning psixologik ta'sir mexanizmlari texnologik taraqqiyot bilan uzviy bog'lanib o'rganilmoqda. Freedom House (2023) tashkilotining tahliliga ko'ra, internet va ijtimoiy tarmoqlar axborot iste'moli madaniyatini tubdan o'zgartirib, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi asosiy kuchga aylangan. Informatsion muhitdagi manipulyativ matnlar, yolg'on xabarlar, propagandistik materiallar real voqelikni buzib ko'rsatish orqali ijtimoiy ongga bevosita ta'sir o'tkazadi. Shu bois ko'plab olimlar axborot xurujlarini XXI asrning eng xavfli "raqamli tahdidi" sifatida talqin etmoqda.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham OAVning ijtimoiy ta'siri muntazam tahlil qilinmoqda. Masalan, J.I. Ibragimovning OAV va jamoatchilik fikriga bag'ishlangan ilmiy ishlanmalarida ommaviy axborot vositalari jamiyatdagi ijtimoiy baholash, qaror qabul qilish va munosabat shakllanishida muhim omil sifatida yoritilgan. Muallifning fikricha, raqamli platformalarning kengayishi jamoatchilikning axborot iste'molidagi tezkorlikni oshirgan bo'lsa-da, ishonchli manbani tanlash masalasida murakkabliklar ham yuzaga kelgan.

Ayniqsa, axborot xurujlari va ularning oqibatlari bo'yicha so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy manbalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. X.E. Abdurahmonovning (2024) ilmiy tadqiqotlarida axborot urushi, kognitiv bosim, media-manipulyatsiya kabi tushunchalar zamonaviy jamiyat xavfsizligiga tahdid sifatida ko'rib chiqilgan. Unga ko'ra, axborot xurujlarining asosiy maqsadi inson ongini boshqarish, jamoatchilikni chalg'itish va ma'naviy barqarorlikni izdan chiqarishdan iborat. Shu jihatdan davlat axborot siyosati, media savodxonlik va tanqidiy fikrlashni shakllantirish bugungi kunning strategik ehtiyojiga aylangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchini ko'rsatadigan shunday bir gap bor: "Har qanday puch g'oya yoki uydirma haftasiga uch martadan to'rt yil davomida takrorlansa – haqiqat tayyor bo'ladi, odamlar unga chippachin ishonadilar".

Oxirgi paytlarda informatsion hujumlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning o'zgarganligidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol – axborotdir. Bunday qurol yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda insonning ongi va qalbi nishonga olinadi. Garchi u daydi o'q singari insonni jismonan yo'q qila olmasa-da, uning qo'poruvchilik kuchi va keltiradigan talofotlari har qanday ommaviy qirg'in qurolinikidan kam emas. Chunki bu qurol yordamida ongga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni o'z manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi va, demak, insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Aslida, axborot maqsadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi [6].



Haqiqatan ham, informatsion hujumlar uyushtirish uchun uncha-muncha mehnat, ko'p harakat yoki katta harajat talab etilmaydi. Garchi bunday mafkuraviy ekspansiya otishmalar va qon to'kilishlariga sabab bo'lmasa-da, milliy o'zlikni anglashni zaiflashtirish evaziga tanazzulga olib keladi.

Zamonaviy OAV – televideniye, kompyuter, Internet, uyali telefon va boshqa vositalar insonlarning, ayniqsa yoshlarning milliyligi, tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirib yubormoqda. Taraqqiy etgan mamlakatlar ushbu vositalar yordamida jahon xalqlari ongi, dunyoqarashi va turmush tarzini bir qolipga solish, ularga o'zlari shakllantirayotgan “ommaviy madaniyat”ni singdirishni bosh strategik siyosat darajasiga ko'tarmoqdalar yaqqol namoyon bo'lmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Internet bugungi axborot makonining muhim bo'g'iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog'i, balki kosmik aloqa yo'ldoshlari, radiosignal, kabel televideniyesi, telefon va uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda olib borilgan tahlillar asosida OAVning jamoatchilik fikriga ta'siri bir necha asosiy yo'nalishlarda kuchli ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy jihatlarni ko'rsatdi [7]:

1. Axborot manbalarining ishonchligi jamoatchilik fikrini belgilaydi. Respondentlar bilan olib borilgan kuzatuv va tahlillar shuni ko'rsatdiki, jamoatchilik ko'proq ishonchli va rasmiy manbalarga tayanishga harakat qiladi. Ammo so'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlardagi axborot oqimi kuchaygani sababli, odamlar ko'pincha rasmiy OAV emas, balki blogerlar, mustaqil platformalar va foydalanuvchi fikrlariga asoslanib qaror qabul qilmoqda. Bu esa ba'zida noto'g'ri yoki manipulyatsiyalangan axborotlarga ishonishga olib keladi.

2. Ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik fikrining asosiy shakllantiruvchisiga aylangan. So'nggi yillarda internet va, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Telegram, Twitter, Instagram) orqali tarqaladigan axborot jamoatchilik fikriga tez va bevosita ta'sir qilmoqda. Odamlar yangiliklarni ko'proq ushbu platformalardan qabul qilayotgani, o'z fikrini ommaviy tarzda bildirish imkoniyati kengaygani sababli, ijtimoiy tarmoqlardagi munozaralar katta auditoriyani qamrab olmoqda.

3. OAV orqali ijtimoiy muammolar dolzarb mavzuga aylanmoqda. Matbuot va televideniye, ayniqsa jurnalistik reportajlar, ijtimoiy muammolarni yoritishda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Bu orqali jamoatchilik e'tibori muhim masalalarga yo'naltirilmoqda: korrupsiya, ekologik muammolar, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimidagi kamchiliklar OAVda keng yoritilgan sari fuqarolarning talabchanligi va fuqarolik faolligi oshib bormoqda.

4. Axborot manipulyatsiyasi jamoatchilik fikrini chalg'itishi mumkin. Tahlillar ko'rsatmoqdaki, ba'zi hollarda ma'lumotlarning noto'g'ri yoki biryozlama yoritilishi orqali jamoatchilik fikri ongli ravishda yo'naltirilmoqda. Bu holat ayniqsa siyosiy jarayonlar yoki ijtimoiy noroziliklar davrida yaqqol seziladi. Shu bois axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining ahamiyati ortib bormoqda.

5. Ijtimoiy ongda o'zgarishlar sezilarli. OAV va internet ta'sirida jamoatchilik fikrida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa yosh avlod yangiliklarga, dolzarb muammolarga nisbatan faol munosabat bildirayotgani kuzatilmoqda. Bu holat fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va ijtimoiy jarayonlardagi ishtirok darajasining oshganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan va ularni monitoring qilish nazarda tutilgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishiga moliyaviy xizmatlar (24,5 %ga; umumiy o'sishga 4,1 foiz band hissa qo'shdi), transport xizmatlari (13,4 %ga; 2,5 f.b.), savdo xizmatlari (13,0 %ga; 2,4 f.b.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (8,8 %ga; 1,8 f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (19,6 %ga; 1,3 f.b.), boshqa xizmatlar (12,9 %ga; 0,6 f.b.), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (15,4 %ga; 0,3 f.b.), shuningdek ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (11,4 %ga; 0,3 f.b.) va ta'lim sohasidagi xizmatlar (6,8 %ga; 0,3 f.b.) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi (1-rasm) [10].

Ijara xizmatlari (19,4 %ga), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (14,6 %ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (12,4 %ga), shuningdek shaxsiy xizmatlar (11,6 %ga) o'sib, umumiy o'sishga 0,8 foiz band miqdorida ijobiy ta'sir ko'rsatdi.


2025-yilning yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari 20,4 %ni xizmatlari 18,4 %, savdo xizmatlari 17,3 %, moliyaviy xizmatlar 17,0 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 7,5 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa 3,7 % ulushni egalladi. 2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 61 505,0 mlrd so'mni tashkil etdi.



	Hajmi, mlrd so'mda		O'sish sur'ati, %da
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar – jami	657 399,2	818 485,0	114,4
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	44 962,8	61 505,0	119,6
moliyaviy xizmatlar	109 824,7	138 972,8	124,5
transport xizmatlari	121 134,7	150 810,8	113,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>59 697,8</i>	<i>75 913,6</i>	<i>111,5</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	137 159,0	167 261,5	108,8
savdo xizmatlari	118 127,6	141 205,5	113,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	16 949,1	21 001,9	111,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	25 149,0	30 419,9	106,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	13 056,1	16 512,7	115,4
ijara xizmatlari	7 993,2	10 430,1	119,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	9 576,7	11 828,8	112,4
shaxsiy xizmatlar	12 659,6	16 256,2	111,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	8 276,8	10 384,1	114,6
boshqa xizmatlar	32 529,9	41 895,7	112,9

1-rasm. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (mlrd.so'm)

Mazkur tarmoqdagi eng katta ulushni kompyuter dasturlashtirish xizmatlari (40,6 %) egalladi. Bu sohada dasturlashtirishning yuqori ulushi yangi AT-klasterni paydo bo'layotganini ko'rsatadi. U qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi va eksport imkoniyatlarini oshiradi, ayniqsa autorsing va dasturiy ta'minot ishlab chiqishda hissa qo'shadi (2-rasm) [10].



2-rasm. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi, mlrd so'm.

Globalashayotgan va raqamlashayotgan dunyo sharoitida aksariyat ekspertlar matbuotning kuchini birinchi o'rinda deb hisoblaydilar. Tilshunoslik, adabiyot, statistika va siyosatga asoslanib, jurnalistlar so'zlarni mohirona qo'llab, xalq va uning ongiga yetarli darajada kuchli ta'sir ko'rsata oladilar. Buning sababi shundaki, odamlar uchun so'z erkinligining kuchi hokimiyat kuchidan ham ustun bo'lishi mumkin.

Ammo yuqoridagi ko'rsatkichlarni sifat jihatdan ham oshirib borish, ommaviy axborot vositalariga yanada qulay shart-sharoit yaratish va ularni kuchli huquqiy himoya bilan ta'minlash zarur. Yangilangan Konstitutsiyada ommaviy axborot vositalariga oid bo'limda, ularning yanada ishonchli va samarali faoliyat yuritishi uchun hozirgi zamon talablariga mos ravishda zarur bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar o'z aksini topgan.



Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ko'pchilik tomonidan ommaviy axborot vositalarini "yopish" taklifi bildirilgani haqida shunday deganlar: "To'g'ri, menga bunday sharoitda ishlash qiyinroq. Ko'pchilik menga ommaviy axborot vositalarini yopishni taklif qilmoqda, lekin men buni hech qachon qilmayman. Men har kuni internetni o'qiyman. Hamma kim qanday gapirganini, vaqtim bo'lishi bilan, qo'limga qalam olib yozib boraman. 10 ta fikrdan 9 tasi to'g'ri bo'lib chiqadi", deya ta'kidlagan davlat rahbari [5].

Konstitutsiyamizning 81-moddasida ommaviy axborot vositalari taqdim etadigan axborotning ishonchlili uchun javobgar ekani belgilangan. Shuningdek, 82-moddaga ko'ra, sensuraga yo'l qo'yilmaydi. Bu esa O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining erkinligini, shu bilan birga ularning mas'uliyatini ham anglatadi. Axborot bugungi kunda taraqqiyotga eltuvchi muhim omillardan biriga aylanib ulgurgan [8].

Ayni paytda shuni ham qayd etish kerakki, bu huquq – boshqa inson huquqlari kabi – ayrim hollarda cheklanishi mumkin. OAVni cheklash faqat qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Masalan, davlat siri bilan bog'liq ma'lumotlarni tarqatish, inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi materiallarni e'lon qilish holatlarida OAV faoliyati cheklanishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinadi. Bugungi kunda OAVga berilayotgan erkinlik va demokratiyaning mustahkamlanishi jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.

Mening fikrimcha, ommaviy axborot vositalari qanchalik erkin bo'lsa, demokratiya ham shunchalik yorqin bo'ladi. Ommaviy axborot vositalarini demokratiyaning "yoqilg'isi"ga qiyoslash mumkin. O'zbekistonda OAV fuqarolik jamiyati institutlari tizimi va uni shakllantirishda, davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi keng qamrovli demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish hamda oshkoralikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Ommaviy axborot vositalari to'g'risida alohida qonun mavjud bo'lib, mamlakatimizda OAV faoliyatini tartibga soladigan va xalqaro normalarga javob beradigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan. Buni O'zbekiston Respublikasining 1997-yilda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, shuningdek "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari misolida ko'rishimiz mumkin. Mazkur hujjatlarining asosiy maqsadi – ommaviy axborot vositalari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni amalga oshirish choralari doirasida OAVning qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, kadrlar salohiyatini va raqobatbardoshligini oshirish, jurnalistika sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. So'nggi yillarda O'zbekiston OAV davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoat nazoratini amalga oshirish bo'yicha o'z vazifalarini faol bajarmoqda. Ular mamlakatimizda haqiqiy "to'rtinchi hokimiyat"ga aylanib bormoqda [7].

Bugungi kunda O'zbekiston Markaziy Osiyoda, shu jumladan mintaqaviy axborot makonida yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, hozir gazeta, radio, televideniye kabi an'anaviy ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda davlat va fuqarolar uchun katta imkoniyat yaratayotgan axborot almashishning yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Masalan, OAVning hukumat bilan o'zaro hamkorligi jadal rivojlanib bormoqda. Demokratik muloqot orqali murosaga kelish va o'zaro anglashuvga erishish mumkin.

Albatta, ommaviy axborot vositalarining salbiy tomoni ham mavjud. Berilayotgan axborotning qanchalik to'g'ri va ishonchli ekani juda muhim. Barchamizga ma'lumki, rivojlangan davlatlarda ommaviy axborot vositalarining asosiy mavzusi – siyosatdir. Hukumat keskin tanqid ostiga olingan taqdirda ham, xalq bunday axborotga emotsiyalarga berilmay, tanqidiy yondashgan holda munosabat bildiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Axborotdan, yuqorida aytib o'tganimdek, foydalanish erkinligi – ayniqsa u jamiyat xavfsizligi, odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kabi tushunchalarga daxl qilsa – mutlaq bo'lishi mumkin emas. Bunday holatlarda cheklovlarisiz biror maqsadga erishish imkonsiz. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi 1953-yilda qabul qilingan Yevropa konvensiyasiga binoan, milliy xavfsizlik, hududiy yaxlitlik yoki jamoat tartibini ta'minlash, sog'liq va axloqni muhofaza qilish, shaxsning obro'sini yoki boshqa huquqlarini himoya qilish, maxfiy yo'l bilan olingan axborot tarqatilishining oldini olish hamda odil sudlovning xolisligi va nufuzini ta'minlash maqsadida so'z erkinligi cheklanishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalarining o'zni O'zbekiston Respublikasida yetarlicha mavjud, deb hisoblayman. Kelajakda OAVni takomillashtirish uchun yetarli darajada bilim va malakaga ega bo'lgan yosh, bilimli jurnalistlarni ishga qabul qilish, shuningdek OAV rivojiga turtki bo'ladigan qonunlarni qabul qilish zarur, deb o'ylayman.

Shuning uchun ham biz fikrni erkin bayon qila oladigan jamiyat qurmoqchi ekanmiz, birinchi navbatda ommaviy axborot vositalarining harakat doiralarini kengaytirish hamda ayrim cheklovlarni bekor qilish zarur, deb hisoblaymiz.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Lex.uz.
2. Umarova, D. R. (2023). *The main characteristics of English pragmatics in linguistics*. Proceedings of International Educators Conference, 2(1), 639-643.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4366-son Qarori. (2019). <https://lex.uz/docs/4390513>
4. Lutfullayev, A. (2021). *Academic Research in Educational Sciences*, 2(4).
5. Ibragimov, J. I. (2023). *Ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik fikri*. "Ilmiy tadqiqotlar va start-up"lar forumi to'plami. Online manba: <https://freedomhouse.org/report/freedompress/2023> (murojaat qilingan sana: 5-aprel, 2025).
6. Abdurahmonov, X. E. (2024). *Ommaviy axborot vositalarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni*. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 1 mart, 2024. ISSN: 2835-3196.
7. Wikipedia. (n.d.). <https://uz.wikipedia.org/>
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. <https://www.stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
